

NOGIRONLIGI BO'LGAN INSONLARNING JAMIYATGA INTEGRATSIYALASHUVI: MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI

Umurzaqov Ilyosjon Mehmonaliyevich

Andijon davlat tibbiyot instituti

Anezteziologiya va reanimatsiya bo'limi vrach-ordinatori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21936919>

Annotatsiya: mazkur maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvi, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash hamda teng huquq va imkoniyatlarini kafolatlash masalalari tahlil qilinadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim, bandlik, tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish jarayonida duch kelayotgan muammolari yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv muhitni shakllantirish va ularning jamiyatdagi faolligini oshirishning samarali mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy integratsiya, inklyuziv jamiyat, teng imkoniyatlar, ijtimoiy himoya, bandlik, ta'lim, ijtimoiy to'siqlar.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы интеграции лиц с инвалидностью в общество, обеспечения их активного участия в социальной жизни, а также реализации равных прав и возможностей. Анализируются основные проблемы, с которыми сталкиваются лица с инвалидностью в сфере образования, занятости, медицинских и социальных услуг. Особое внимание уделяется механизмам устранения социальных барьеров, формирования инклюзивной среды и повышения социальной активности лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: лица с инвалидностью, социальная интеграция, инклюзивное общество, равные возможности, социальная защита, занятость, образование, социальные барьеры.

Abstract: this article examines the integration of persons with disabilities into society, ensuring their active participation in social life, and promoting equal rights and opportunities. The study highlights the main challenges faced by persons with disabilities in accessing education, employment, healthcare, and social services. Particular attention is paid to mechanisms for eliminating social barriers, developing an inclusive environment, and enhancing the social participation of persons with disabilities.

Keywords: persons with disabilities, social integration, inclusive society, equal opportunities, social protection, employment, education, social barriers.

Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarda nogironligi bo'lgan odamlarga ko'mak berish bilan birga ularning boshqa jamiyat subyektlari bilan teng sharoit va imkoniyatlarda yashashini ta'minlash ham yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Ushbu xolat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq siyosiy, fuqarolik, iqtisodiy va boshqa huquqlarni amalga oshirishdan iborat. Shu bilan birga, nogironlikning turiga qarab ajratmasdan umumiy yondashgan holda alohida sharoitlar, xizmatlar, ijtimoiy rehabilitatsiya va integratsiyani amalga oshirish lozim. Aynan shu jarayonlar mazkur tadqiqot mavzu sifatida tanlab olingan.

Nogironlik muammosini ijtimoiy hodisa sifatida anglash bilan bir qatorda davlatning ijtimoiy siyosatida ular uchu ta'lim, ijtimoiy himoya masalalari, ish bilan bandlik bizningcha, mavzuning tahlil predmeti bo'lishi kerak.

Nogironligi bo'lgan insonlarning hayotlariga tahdid avvalo, ularning yashash sharoitlari va faoliyatini ta'minlash o'rniga aksinchaa, iqtisodiy jarayonlardan chetda qolishi, ishsizlik muammolari yoki boshqa imkoniyatlarning torayishi, siyosiy, madaniy hayotdan ham yakkalanishlarda kuzatiladi. Huquq ijodkorligi –nogironligi mavjud insonlarga nisbatan ham - samarali siyosat olib borilishini harakatga keltiruvchi mexanizm sifatida muhim strategiyaga aylanishi lozim.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz ijtimoiy siyosati nogironlarni ish bilan ta'minlash va ularning hayotini tashkil etish sohasida faol pozitsiyani egallashga undaydi va bu hech qanday muammoga bog'liq emas. Ammo, buning uchun qonun ijodkorligida ularga nisbatan qaratilgan huquqsizliklarni oldini olish ta'sir usullari yoki profilaktik choralari hali yetarli darajada ijod etilmagan. Avvalo, bugungi iqtisodiy tezlashuv jarayonlarida imkoniyati cheklangan insonlarni bandlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu ayniqsa ularning faol global jarayonlardan chetda qolish emas, balki qonuniy manfaatlarini, ijtimoiy himoya qilishda dolzarblikka ega bo'ladi.

Ayrim hollarda ish beruvchi yuridik tashkilotlar imkoniyati cheklangan insonlarga kerakli shart-sharoitlarni yaratib berish qoidalarini bilmaydilar va bular amaldagi qonunlarni to'g'ri anglamaslik yoki huquqiy savodning yetarli emasliklari ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Buning oqibatida esa, nogironligi bo'lgan fuqarolarning mehnat munosabaat masalasidagi huquqlari poymol qilinmoqda. Afsuski, salomatligida muammosi bo'lgan insonlarning konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlarini ta'minlash uchun davlat siyosatini jamiyatga to'liq singdirilish ishlari hali yetarli darajada samarali emas.

Ish joyiga tashish va harakatlanishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, ekologik to'siqlar - nogironlarning ijtimoiy faolligini pasaytiradigan sabablardir. “Bu jarayonga qulay ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining yo'qligi, nogironlar uchun zarur bo'lgan texnik vositalarning past sifati kabi omillar ham ta'sir ko'rsatmoqda”¹.

Bugungi kunda davlatning siyosiy institutlari, jamoat birlashmalari va ijtimoiy xizmat sohalari faoliyatlari davomida bag'rikenglik, jamayat manfaatlarini ustuvorligida yuqori malakali pozitsiya, inson huquqlariga oid xalqaro me'yorlarni chuqur anglash hamda amaliyotda qo'llash, xizmat ko'rsatish va servis xizmatlarini horij standartlariga integratsiya qilish kabi jihatlarga o'z e'tiborlarini qaratmoqdalar. Lekin, tan olish kerakki, nogironligi bo'lgan insonlar uchun ijtimoiy ta'minot va xizmat ko'rsatish sohasida chinakam ta'minlanish uchun barcha qulayliklar hamda sharoitlar yaratilayotgani bilan amaliyotda qo'llashda jiddiy nomutanosiblik muammolari mavjuddir.

Aholining birgalikdagi hayoti va faoliyatidan kelib chiqadigan ijtimoiy harakatlar - odamlarning xulq-atvori va o'zini-o'zi identifikatsiya qilish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Faqatgina o'zlarining jamoaviy va individual o'ziga xosligini namoyish etish va turmush sharoitlarini o'zgartirish orqali nogironlar o'zlarini faol ijtimoiy ishtirokchilar sifatida namoyon etishlari mumkin.

¹ Yarskaya-Smirnova E.R., Naberushkina E.K. Nogironlar bilan ijtimoiy ish. Saratov: SSTU, 2003 yil 26-срп.

Binobarin, asosiy muammoni quyidagicha shakllantirish mumkin: ijtimoiy-huquqiy davlatni shakllantirishda uzoq muddat hal qilinmagan ijtimoiy jarayonlarni faol amalga oshirilmaganligi, ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiylashuviga xalaqit beradi. Bugungi kunda, yangilib borayotgan jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf qiluvchi omillar va uni bartaraf etish versiyalariga jiddiy kirishilmoqda, bu o'z navbatida global rivojlanish tendensiyalari, odilona ijtimoiy siyosat va inson huquqlari kafolatlarida davlat institutlarining muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlar asosan zamonaviy voqelikni tadqiq etishda avvalo, kambag'allikni qisqartirish, ishsizlik, inson huquqlarini kafolatlari, ijtimoiy siyosat shakllari va postulatlarini o'rganishga qaratilmog'i lozim. Shu qatori nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiylashuvi va ularga g'amx'orlik qilish ob'ektlarini aniqlashga bag'ishlangan biqr qator tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borilgan. Salomatligida muammolari bo'lgan shaxslarning bandligi, ijtimoiy himoyasi va huquqiy asoslari² hozirgi davrning dolzarb muammolariga aylanmoqda. Yana bir tadqiqot an'anasi "nogironlarga nisbatan ijtimoiy siyosatni tahlil qilish uchun tanqidiy nuqtai nazarni shakllantiradi, shuningdek, nogironlarning hayotiy faoliyatiga asosiy e'tiborni qaratadi"³.

Qirg'iz tadqiqotchisi N.Sh.Japarova fikricha, hozirgi vaqtda Qirg'iziston Respublikasida nogironlarni sog'lomlashtirishning yagona tizimi mavjud emas va reabilitatsiyani tashkil etish zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Bundan tashqari, nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha muassasalararo va idoralararo aloqa faoliyatini muvofiqlashtirish eski tasdiqlangan qarorlar asosida amalga oshiriladi⁴.

Ukrainalik olim S.V.Egorova tadqiqotlari⁵ esa tadbirkorlik faoliyati orqali nogironlarning ijtimoiy integratsiyalashuvi imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, nogironlarning faol hayot strategiyalari, tarjimai holi va o'z taqdirini o'zi belgilashini o'rganish uchun sifatli suhbat metodologiyasidan foydalanish ma'lum samara beradi.

Tadqiqotchi E.K.Naberushkina davlat siyosatiga muvofiq nogironlarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy ta'minot masalalarini tadqiq etgan bo'lsa⁶, E.R.Yarskaya-Smirnovaning tadqiqotlari

² Ойнонен С. Права лиц с ограниченными физическими и умственными возможностями в Финляндии и их реализация // Журнал социологии и социальной антропологии. 1998. № 4. Т. 1; Правовая защита семей, воспитывающих детей-инвалидов: сб. нормативных актов. М., 1996; Профессиональная реабилитация инвалидов. М., 1997; Смирнов С., Николаенко Е. Экономика трудовой реабилитации инвалидов: опыт предприятий ВОИ // Человек и труд. 1998. № 12. //Черносвитов Е.В. Социальная медицина: учеб, пособие для студентов высш, учеб, заведений. М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000; См. критику подхода: Романов П.В., Ярская Е.Р. Болезни роста социальной медицины // Гендерные исследования. 2001. № 4. С. 292-301.

³ Васин С.А., Голоден О.Ю., Бесфамильная С.В. Инвалиды в России: причины и динамика инвалидности, противоречия и перспективы социальной политики. М.: РОССПЭН, 1999; Малева Т., Васин С. Инвалиды в России - узел старых и новых проблем // «Pro et Contra». 2001. Т. 6. № 3. С. 80-105; Социальная политика и социальная работа в изменяющейся России / под ред. Е. Ярской-Смирновой и П. Романова. М.: ИНИОН РАН, 2002.

⁴ Japarova N.SH. Кыргыз республикасынын ош облусундагы майыптарды реабилитациялоону өркүндөтүүдөгү медициналык жана социалдык аспектилер. // Медицина илимдеринин кандидаты окумуштуулук даражасын алуу учун изилдөөчүнүн диссертациясы. Бишкек 2024. – 6.

⁵ Егорова С.В. Предпринимательская деятельность как проактивная жизненная стратегия инвалидов: автореф, дне. ... канд. социол. наук. Саратов: СГТУ, 2002.

⁶ Наберушкина Э.К. Стратификационный анализ инвалидности: автореф. дис. ... канд. социол. наук. Саратов: СГТУ, 1997; Она же. Политика в отношении инвалидов // Социальная политика и социальная работа в изменяющейся России / под ред. Е. Ярской- Смирновой и П. Романова. М.: ИНИОН РАН, 2002

nogironlik, nogironlarning oilaviy va biografik harakatchanligini aniqlash muammolariga bag'ishlangan⁷.

Shu bilan bir qatorda, nogironlikni keltirib chiqaruvchi omillar, nogironligi bo'lgan odamlarning jamiyatga kafolatli ijtimoiy-iqtisodiy faol integratsiyasi uchun kerakli bo'lgan xususiyatlarini anglashda ya'ni "nogironlik siyosati"ga doir bir necha nashrlar⁸ va innovatsion loyihalar⁹ ham tadqiq etilmoqda.

K.Shriner va L.Oxe¹⁰ o'z tadqiqotlarida AQSh zamonaviyligida "istisno muammosi" amaliyotini ko'rib chiqdilar. Ularning qarashlarida, ijtimoiy hayotda ishtirok etishning zarur determinantlari nimalardan iborat ekanligiga faylsafaning rivojlanish evolutsiyasida nogironlik, alohidalik, og'ishlar va qaramlik orasida sezilarli bog'langanlik mavjuddir. Siyosiy sohada nogironligi bo'lganlarning saylov jarayonlarida ishtiroki asosiy huquqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi, lekin jins, irq, ijtimoiy holati, muhimi kognitiv va intellektiga ko'ra rivojlanish darajasiga qarab kamsitiklarga yo'l qo'ymaslik qonunchilikda va konstitutsiyaviy islohotlarda o'z aksini topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada huquqlar himoyasi konstitutsion islohotlarni talab etadi, ularning manfaatlarini ko'zlab siyosiy va huquqiy yengilliklarini yo'naltirib borishi zaruratga aylanadi.

M.Oliver va J.Kempbell o'zlarining "Nogironlik siyosati" deb nomlangan tadqiqotida "ijtimoiy harakatining o'sishida shaxsan ishtirok etgan nogironlar bilan suhbatlar ma'lumotlaridan foydalangan holda, ular ushbu sohadagi siyosatni ifodalovchi jamoaviy tarixni yaratishdi"¹¹. N.Yu.Danilovning ilmiy xulosalariga asosan, nogironligi bo'lganlarning "ijtimoiy faolligi, ijtimoiy guruhlarining jamoaviy o'zaro ta'siri ko'p darajada davlat ijtimoiy siyosati ta'siri ostida shakllanadi"¹².

Shu ma'noda har bir mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat salomaatlik imkoniyatlari cheklangan insonlarning faol fuqarolik huquqiy maqomini belgilab beradi, ularga ijtimoiy ta'minot va yordam ko'rsatish mexanizmlarini ishlab chiqadi, shuningdek, mazkur jarayon ishtirokchilarining faollik koordinatalari, mezonlari va xususiyatlarini belgilashda muhim omil bo'ladi. G'arb davlatlarida nogironligi bo'lganlarning ijtimoiy faolligi hamda mazkur masalani ilmiy tadqiq etish ko'plab xizmat sohalari, muassasalar va tashkilotlarning ichki faoliyatlarida ham sezilarli o'zgarishlarga ko'mak bermoqda.

⁷Наберушкина Э.К. Стратификационный анализ инвалидности: автореф. дис. ... канд. социол. наук. Саратов: СГТУ, 1997; Она же. Политика в отношении инвалидов // Социальная политика и социальная работа в изменяющейся России / под ред. Е. Ярской- Смирновой и П. Романова. М.: ИНИОН РАН, 2002

⁸ Oliver M., Campbell J. Disability Politics: Understanding Our Past, Changing Our Future. Routledge, 1996; Drake R.F. Understanding Disability Policies. Basingstoke: Macmillan, 1999; Oliver M. The Politics of Disability. L.: Macmillan, 1990; Schriner K.F., Rumrill P. and Par- lin R. Rethinking disability policy: Equity in the ADA era and the meaning of specialized services for people with disabilities // Journal of Health and Human Services Administration. 1995. № 17(4). P. 478-500; Schriner K. Challenges in the Comparative Study of Disability Politics // Disability World. URL: http://www.disabilityworld.org/01-02_01/gov/challenge.htm.

⁹ Masalan, nogironlik siyosati Arkanzas universitetida ko'p tarmoqli tadqiqot va xizmat loyihasi bo'lib, uning maqsadi nogironlarning siyosiy ishtirokini, nogironlar jamiyati muammolarini o'rganish va nogironlik bo'yicha demokratik boshqaruvni takomillashtirishdir.

¹⁰ Schriner Kay and Ochs Lisa A. Creating the disabled citizen: How Massachusetts disenfranchised people under guardianship // Ohio State Law Journal. 2001. P. 62; Schriner Kay, Ochs Lisa A. and Shields Todd G. The last suffrage movement: Voting rights for persons with cognitive and emotional disabilities // Publius. 1997. № 27(3). P. 75-96.

¹¹ Oliver M., Campbell J. Op. cit.

¹² Данилова Н.Ю. Коллективные действия участников войны в Афганистане в контексте социальной политики.

Amerikalik ilmiy tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan nogironlikning ijtimoiy xususiyatiga oid loyihalar va dasturlar tadqiqi shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud ijtimoiy siyosat nogironligi bo'lganlar hamda sog'lom odamlar uchun teng huquqlarni ta'minlashi asosan ikkita strategiyani amalga oshirishni taqozo etadi¹³. Birinchisi, maxsus xizmat ko'rsatish lozim bo'lgan nogironlik toifalarini belgilab olish; ikkinchisi, nogironligi mavjud insonlarning real ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni qamrab olishi lozim. Shuningdek, mazkur ikki versiyada ham nogironligi bo'lganlar jamiyatni ularning mavjudligiga integratsiya qilish yoki va qilmqaslik xolatidan keyingina amalga oshirish mumkin bo'ladi. Har doim ham qaysi davlatda bo'lishidan qat'iy nazar qonunlar nogironligi bo'lgan insonlar uchun adolat va tenglik imkoniyatlarining yangi tamoyillarini yaratishga qodir mexanizm sifatida ishlashi shart.

Nogironlikni kontseptual modellashirish ko'p jihatdan nogironlarga nisbatan har qanday dastur va chora-tadbirlarning ta'sir xususiyatlarini aniqlaydi¹⁴. Ozchiliklar guruhi modeli Qo'shma Shtatlardagi nogironlik sohasida asosiy paradigma bo'ldi. Ushbu model kamsitishni nogironlarning ijtimoiy ishtiroki uchun asosiy to'siq sifatida kontsepsiyalaydi va fuqarolik huquqlari strategiyasini tegishli siyosatga javob sifatida belgilaydi. Nogironlikni to'liq qamrab olish masalasiga erishish uchun yanada innovatsion strategiyalar muqobil modellar yaratish lozim.

Sohaga oid izlanishlar olib borgan olim Robert Dreykning fikriga asosan, "jamiyatda mavjud bo'lgan me'yorlar va qadriyatlar ko'pchilikning pozitsiyasini ifodalaydi va ozchiliklarning manfaatlarini bo'ysundirishi mumkin, chunki jamiyatda nogironlarga qaraganda ko'proq nogiron bo'lmaganlar mavjud. Bu jihat zamonaviy nogironlik siyosatiga asoslanadi"¹⁵. Shuningdek, ushbu tadqiqotchi ko'plab davlatlar mavjudligining turli davrlarida o'zida mujassamlashgan nogironlik siyosatining turli modellarini ochib beruvchi maxsus tipologiyani ishlab chiqdi¹⁶. Davlat siyosatida nogironlik masalasiga yetarli e'tibor qaratmaslik ularning fuqarolik huquqlarini poymol bo'lishi hamda inkor etilishiga olib keladi. E'tiborsizlik modeli barcha davlatning siyosiy institutlarida nogironligi bo'lganlarga minimal ishtirokni namoyish etishi bilan harakterlanadi. Mozaik versiyasi, aniq va yaxlit ishlab chiqilgan yo'l xaritasini yaratish hamda bosqichma-bosqish amalga oshirish imkoniyatlarining yo'qligida, nogironlikka ko'r-ko'rona va yondashilmagan davlat munosabatini ifoda etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yarskaya-Smirnova E.R., Naberushkina E.K. Nogironlar bilan ijtimoiy ish. Saratov: SSTU, 2003 yil 26-str.
2. Ойнонен С. Права лиц с ограниченными физическими и умственными возможностями в Финляндии и их реализация // Журнал социологии и социальной антропологии. 1998. № 4. Т. 1;
3. Правовая защита семей, воспитывающих детей-инвалидов: сб. нормативных актов. М., 1996;

¹³ Schriner K.F., Rumrill P. and Parlin R. Rethinking disability policy // Journal of Health Human Service Administration. 1995. Spring. Vol. 17(4). P. 478-500.

¹⁴ Scotch Richard K. and Schriner Kay. Disability as human variation: Implications for policy. The Annals, 549. 1997. P. 148-159.

¹⁵ Drake R.F. Understanding Disability Policies. Basingstoke: Macmillan, 1999.

¹⁶ Ibid. P. 36.

4. Профессиональная реабилитация инвалидов. М., 1997;
5. Смирнов С., Николаенко Е. Экономика трудовой реабилитации инвалидов: опыт предприятий ВОИ // Человек и труд. 1998. № 12. //
6. Черносвитов Е.В. Социальная медицина: учеб, пособие для студентов высш, учеб, заведений. М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000;
7. См. критику подхода: Романов П.В., Ярская Е.Р. Болезни роста социальной медицины // Гендерные исследования. 2001. № 4. С. 292-301.
8. Васин С.А., Голоден О.Ю., Бесфамильная С.В. Инвалиды в России: причины и динамика инвалидности, противоречия и перспективы социальной политики. М.: РОССПЭН, 1999; Малева Т., Васин С. Инвалиды в России - узел старых и новых проблем // «Pro et Contra». 2001. Т. 6. № 3. С. 80-105; Социальная политика и социальная работа в изменяющейся России / под ред. Е. Ярской-Смирновой и П. Романова. М.: ИНИОН РАН, 2002.
9. Japarova N.SH. Кыргыз республикасынын ош облусундагы майыптарды реабилитациялоону өркүндөтүүдөгү медициналык жана социалдык аспектилер. // Медицина илимдеринин кандидаты окумуштуулук даражасын алуу учун изилдөөчүнүн диссертациясы. Бишкек 2024. – 6.
10. Егорова С.В. Предпринимательская деятельность как проактивная жизненная стратегия инвалидов: автореф, дне. ... канд. социол. наук. Саратов: СГТУ, 2002.
11. Наберушкина Э.К. Стратификационный анализ инвалидности: автореф. дис. ... канд. социол. наук. Саратов: СГТУ, 1997; Она же. Политика в отношении инвалидов // Социальная политика и социальная работа в изменяющейся России / под ред. Е. Ярской-Смирновой и П. Романова. М.: ИНИОН РАН, 2002
12. Наберушкина Э.К. Стратификационный анализ инвалидности: автореф. дис. ... канд. социол. наук. Саратов: СГТУ, 1997; Она же. Политика в отношении инвалидов // Социальная политика и социальная работа в изменяющейся России / под ред. Е. Ярской-Смирновой и П. Романова. М.: ИНИОН РАН, 2002
13. Oliver M., Campbell J. Disability Politics: Understanding Our Past, Changing Our Future. Routledge, 1996;
14. Drake R.F. Understanding Disability Policies. Basingstoke: Macmillan, 1999;
15. Oliver M. The Politics of Disability. L.: Macmillan, 1990;
16. Schrinier K.F., Rumrill P. and Par- lin R. Rethinking disability policy: Equity in the ADA era and the meaning of specialized services for people with disabilities // Journal of Health and Human Services Administration. 1995. № 17(4). P. 478-500;
17. Schrinier K. Challenges in the Comparative Study of Disability Politics // Disability World. URL: http://www.disabilityworld.org/01-02_01/gov/ challenge.htm.
18. Schrinier Kay and Ochs Lisa A. Creating the disabled citizen: How Massachusetts disenfranchised people under guardianship // Ohio State Law Journal. 2001. P. 62; Schrinier Kay, Ochs Lisa A. and Shields Todd G. The last suffrage movement: Voting rights for persons with cognitive and emotional disabilities // Publius. 1997. № 27(3). P. 75-96.
19. Oliver M., Campbell J. Op. cit.
20. Данилова Н.Ю. Коллективные действия участников войны в Афганистане в контексте социальной политики.

21. Schriener K.F., Rumrill P. and Parlin R. Rethinking disability policy // Journal of Health Human Service Administration. 1995. Spring. Vol. 17(4). P. 478-500.
22. Scotch Richard K. and Schriener Kay. Disability as human variation: Implications for policy. The Annals, 549. 1997. P. 148-159.
23. Drake R.F. Understanding Disability Policies. Basingstoke: Macmillan, 1999.